



BUDJET TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHDA XALQARO STANDARTLARGA O'TISHNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI

Maxamadaliyeva Mahliyoxon Maxamadmurod qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya. Ushbu maqolada budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati, hisob yuritish ishlarining Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari asosida tashkil etilishining ijobjiy ta'siri xorijiy mamlakatlar misolida tahlil etilib, O'zbekistonda mazkur masalada amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: budjet islohotlari, budjet jarayoni, budjet tashkiloti, integratsiya, iqtisodiy o'sish, moliyaviy axborot, xalqaro standartlarni joriy etish.

Abstract. In this article, the role and importance of accounting in budget organizations in the country's economy, the positive effect of the organization of accounting in the public sector on the basis of international standards of accounting are analyzed on the example of foreign countries, and suggestions for further improvement of the reforms implemented in Uzbekistan in this matter are presented.

Keywords: budget organization, budget process, budget reforms, economic growth, financial information, implementation of international standards, integration.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение бухгалтерского учета в бюджетных организациях в экономике страны, положительный эффект от организации бухгалтерской деятельности в государственном секторе на основе международных стандартов бухгалтерского учета на примере зарубежных стран, а также были представлены предложения по дальнейшему совершенствованию реализуемых в Узбекистане реформ по данному вопросу.

Ключевые слова: бюджетная организация, бюджетный процесс, бюджетные реформы, внедрение международных стандартов, интеграция, финансовая информация, экономический рост.

Kirish

Hozirgi kunda Davlat sektorida budjet hisobi va moliyaviy hisobot tizimini zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan budjet islohotlarining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlarning dolzarbligi shundan iboratki, aynan budjet hisobi va moliyaviy hisobot tizimida shakllanadigan ma'lumotlar Davlatning boshqaruv jarayonida tezkor, sifatli va zamonaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida, foydalanuvchilarning talablariga to'liq javob beradigan sifatli va ishonchli budjet hisoboti ma'lumotlarini olish, umumqabul qilingan xalqaro standartlarga mos



keladigan budjet hisobi va moliyaviy hisobot uslubiyoti mavjud bo'lganidagina ta'minlanishi mumkin.

Xalqaro qabul qilingan standartlarining, xususan, Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarining ahamiyati dunyo bo'ylab yildan-yilga o'sib bormoqda. Bu esa o'z navbatida milliy buxgalteriya standartlarining xilma-xilligi sababli buxgalteriya hisobini xalqaro darajada standartlashtirish jarayoni murakkablashishi bilan bog'liq bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi moliyaviy hisobotlarni tuzishning nazariy va uslubiy asoslari, moliyaviy hisobotlardagi budjet ijrosi to'g'risidagi axborot ko'lami va mavjud axborot imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha bir qator mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Xususan, xorijlik olimlardan Wan Zuriati Wan Zakaria, L.I.Tkachenko, I.H.Dankwanbo, O.F.Kayode, Novak, Z.Nejad kabilar budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish, davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlar asosida qanday shakllanayotganligi tahlili va mamlakatlar iqtisodiy rivojida xalqaro standartlarning qo'llanilishining ahamiyati haqida izlanishlar olib borishgan bo'lsa, mahalliy olimlarimizdan esa M.Ostonoqulov, S.Mehmonov, A.K.Ibragimov, A.J.Tuychiyev, Sh.V.G'aniyev, B.K.Hamdamovlarning asarlarida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit, budjet hisobi, hisoboti va nazorati masalalari chuqur tahlil qilinib, sohalarni yanada takomillashtirish bo'yicha bir qator amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yurishda xalqaro standartlarga o'tishning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati mavzusida ilmiy tadqiqot olib borishda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, monografik kuzatuv, qiyosiy taqqoslash singari usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Budjet tizimi budjetlari ijrosi hisobini tashkil etishning boshqa tarmoq hisob turlariga nisbatan bir qator o'ziga xos bo'lgan alohida xususiyatlari mavjud. Avvalo barcha jarayon budjet ijrosi jarayonining uzlusizligini ta'minlash maqsadida tashkil qilinadi. Bunda budjet pul mablag'lari, daromadlar, xarajatlar, beriladigan va olinadigan budjet ssudalari, budjetlararo o'zaro hisob-kitoblar, budjet ijrosi natijalarini hisobda aks ettirish, budjetdan mablag' oluvchilarning daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi va ularni nazorat qilinishi, budjet hisobi schyotlarida aktivlarning holati va harakati to'g'risidagi to'la va aniq ma'lumotlarni shakllantirish, samarali boshqarish maqsadida budjet hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish orqali budjet hisobotlarini tuzish hisoblanadi.

Budjet hisobotlarini tuzishning bir qator o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bular, avvalo davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari budjetini tuzish va ijro etish



prinsiplariga va boshqa bir qator omillarga bevosita bog'liqdir. Xususan, O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuniga muvofiq: «Buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplari uzlucksizlik, ishonchlilik, ko'rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplari»⁷ ekanligi belgilangan. O'z navbatida budget tizimi budgetlari ijrosi hisobini tashkil etishda ushbu asosiy prinsiplarga amal qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining budget ijrosiga oid qonunchiligiga ko'ra budget tizimi budgetlari ijrosi hisobining o'ziga xos xususiyatlari mavjudligidan kelib chiqib, alohida prinsip va tamoyillarga ham amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 165-moddasiga ko'ra: «davlat budgetining ijrosi to'g'risidagi hisobot g'aznachilik bo'linmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti va mahalliy budgetlarning ijrosi to'g'risidagi hisobotlar tegishli g'aznachilik bo'linmalari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar moliya organlariga taqdim etiladi»⁸.

Budget tizimi budgetlari ijrosining budget foydalanuvchilarni ishonchli, o'z vaqtida moliyaviy axborotlar bilan ta'minlash maqsadida moliyaviy hisobotlar shakllantiriladi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq budget tizimi budgetlarining budget hisobotlarini shakllantirishni tartibga solish O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Xorij adabiyotlaridan birida keltirilishicha: «Budget jarayonini boshqarishning avtomatlashtirilgan axborot tizimlari real vaqt rejimida budget jarayoni (shu jumladan, budget ijrosi) axborot oqimlarining kompleks hisobini olib borish va iqtisodiy tahlilini amalga oshirish imkonini beradi, ma'lumotlarning haqqoniyligi va tezkorligini oshiradi va operativ tarzda tegishli oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon yaratadi»⁹.

I.H.Dankwanbo fikriga ko'ra: «bundan bir necha yillar avval Nigeriyaning davlat sektorida buxgalteriya hisobining kassa usulidan foydalanilgan. Bu davlat sektorida DS MHXS qabul qilinishidan avval bir qancha islohotlarga sabab bo'lgan»¹⁰. Aslida Nigeriyada 1945-yildan buxgalteriya hisobi islohotlari boshlangan bo'lib, O.F.Kayodening ta'biriga ko'ra: «ushbu davr mobaynida mamlakatda ko'plab islohotlar davlat sektori buxgalteriya hisobi jarayonining ishonchliligi, ochiqligi va axborot imkoniyatini yaxshilash, shuningdek, mamlakatning iqtisodiy rivojiga olib kelishini ko'zlab amalga oshirilgan»¹¹.

⁷ O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi 404-sonli qonuni, 14.04.2016

⁸ O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 26 dekabrdagi «Budget kodeksi» O'RQ-Z60-sonli Qonuni

⁹ Steven M.Bragg -TREASURY MANAGEMENT The Practitioner's Guide. John Wiley & Sons, Inc. 2010 New Jersey

¹⁰ Dankwanbo, I.H. (2010), Transition to International Public Sector Accounting Standards (IPSAS) and Their Impact on Transparency; a Case Study of Nigeria. Retrieved on 10/11/2014 From www.Slideshare.Net/Icifmconference

¹¹ Kayode O.F. (2014) Insight into Contemporary Public Sector Accounting and Finance. Larigraphics Printers, Eyamba, Jos, 350



Xorijlik iqtisodchi olim Novakning fikriga ko'ra: «bu muammolar asosiy vosita, majburiyat, daromad va xarajatni tan olish, davlat darajasida to'la ijtimoiy ko'makga ega bo'lish kabilarni o'z ichiga oladi. Hukumat hisoblash usuliga o'tishga qaror qabul qilishdan avval hisoblash usuli tanlashning foyda va zararlarini tahlil etishi va bu o'zgarishlarni samarali amalga oshirishga yetarli quvvatga ega bo'lishi zarur»¹².

Bu borada Zabibullah Nejad quyidagi fikrlarni keltirib o'tgan: «Agarda buxgalteriya hisobining hisoblash usuli rejalshtirish va budgetlashtirish uchun tanlanadigan bo'lsa, resurs ajratilishi, vaqt tejalishi, xarajatlarning sezilarli kamayishi, tashkiliy xavfsizlik oshishida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Boshqa tomondan esa to'g'ri hisob tizimiga ega bo'lish ijtimoiy javobgarlikni ado etishda, moliyaviy hisobot foydalanuvchilarining ehtiyojlarini qondirish va ijroga yo'naltirilgan budget uchun dasturlar, mashg'ulotlar, xizmatlar va mahsulotlarni ajratib olish va hisoblashga yordam berishi bilan muhimdir»¹³.

«Davlat budgeti umum davlat manfaatlarini inobatga olgan holda ustuvor yo'nalishlar uchun moliyaviy resurslarni jamlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi»¹⁴. Mamlakatimizda davlat budgeti oldingi yillar budgetlari singari asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha hukumatimiz tomonidan chora-tadbirlarni davom ettirishga qaratilgan. «Davlat budgetining umumiyligi xarajatlarida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ajratilgan xarajatlarini oshirish ko'zda tutilmoqda»¹⁵.

Islohotlarning ijobiy samarasini o'laroq davlat moliyasini boshqarish tizimini yangi bosqichga olib chiqish va budget intizomini yanada mustahkamlash, soliq-budget tizimining shaffofligini oshirish maqsadida Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi (DMBAT) va budget tashkilotlari avtomatlashtirilgan axborot tizimi (UzASBO)dan foydalanish yo'lga qo'yildi. Natijada, soliq to'lovlarini Yagona g'azna hisobvarag'ida hisobga olish, budget tizimi budgetlari daromad qismining ijrosini ta'inlash, budget tashkilotlarining xarajatlar smetasini elektron shaklini yuritish, budget tashkilotlarining shartnomalari va hisobvaraq-fakturalarini elektron shaklda qabul qilish va qayta ishslash, ularning elektron to'lov topshiriqnomalarini qabul qilish va to'lash kabi davlat budgeti ijrosiga oid masalalar amalga oshirib kelinmoqda.

Xulosa va takliflar

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, budget tizimi va budget jarayonini boshqarishning avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini joriy etish va rivojlantirish ushbu mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda katta ahamiyatga

¹² Nowak, W. A. (2017). The relevancy of contingency approach to public sector Accounting development: recent evidence from Poland, Universidad De Coimbra, Coimbra

¹³ Zabihullah Nejad, V. (2019). The need to apply and implement accrual accounting in the public sector and evaluate its accountability and financial reporting for use in the public sector of Iran, Police Development, 16(68), 97-121. (In Persian)

¹⁴ Malikov T., Haydarov N. Moliya: umum davlat moliysi. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009. 21-22-b.

¹⁵ www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)



ega bo‘lib kelmoqda. Budjet tizimi katta hajmdagi axborot oqimlari kesishuvining markazi hisoblanadi. Budjet jarayonining axborot oqimlari oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qilgani holda, ularni soddalashtirilgan tarzda qayta ishslash va avtomatlashtirish uchun bir tizimga solish va tartibga keltirish talab etiladi. Shu sababli mamlakatimiz hukumati tomonidan bu muammoning muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligini inobatga olib, davlat moliyasini boshqarishning axborot tizimini shakllantirish yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilingan va maxsus dasturlar ishlab chiqilgan.

Davlat budgeti xarajatlarini yanda samarali boshqarishini takomillashtirishda quyidagi takliflardan foydalanish maqsadga muvofiq bo’ladi:

- budjet intizomini mustahkamlash maqsadida budjet xarajatlaridan samarali va oqilona foydalanishning asosiy shartlaridan biri tejamkorlik rejimidagi xarajatlarni nazorat qilish normalariga qat’iy rioya qilish;

- budjetdan mablag’ oluvchi muassasalarning moddiy texnik bazasini inobatga olgan holda, byujetdan mablag’ oluvchilarining shaxsiy hisobvaraqlaridan amalga oshirilgan to’lovlar ko’chirmasini o’z muddatlarida hisobotlarda aks ettirilishini ta’minlash maqsadida, ushbu hujjatlarni tegishli operatsiyalar amalga oshirilgandan so’ng g’aznachilikda to’g’ridan-to’g’ri budjet muassasasiga elektron tarzda yuborish va shu asosda budjet muassasalari tomonidan hisobotlarni o’z vaqtida va sifatli tuzishga erishish maqsadga muvofiq bo’lardi;

- davlat budgetini shakllantirish va uning mablag’laridan foydalanish ustidan operativ nazoratni ta’minlash maqsadida o’z faoliyatlari bilan bog’liq munosabatlar doirasida budjet tizimini boshqarish organlari doirasida integrallashgan axborot tizimlarini yaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to’g’risida”gi 404-soni qonuni, 14.04.2016
2. O’zbekiston Respublikasining 2013 yil 26 dekabrdagi “Budjet kodeksi” O’RQ-360-soni Qonuni
3. Malikov T., Haydarov N. Moliya: umumdavlat moliyasi. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009.
4. Dankwanbo, I.H. (2010), Transition to International Public Sector Accounting Standards (IPSAS) and Their Impact on Transparency; a Case Study of Nigeria.
5. Steven M.Bragg -TREASURY MANAGEMENT The Practitioner’s Guide. John Wiley & Sons, Inc. 2010 New Jersey
6. Kayode O.F. (2014) Insight into Contemporary Public Sector Accounting and Finance. Larographics Printers, Eyamba, Jos, 350
7. Nowak, W. A. (2017). The relevancy of contingency approach to public sector Accounting development: recent evidence from Poland, Universidad De Coimbra, Coimbra



8. Zabihullah Nejad, V. (2019). The need to apply and implement accrual accounting in the public sector and evaluate its accountability and financial reporting for use in the public sector of Iran, Police Development, 16(68), 97-121.

9. www.imf.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy web-sahifasi

